

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MAYDA MOTORIKANI RIVOJLANTIRISHGA DOIR O‘YINLAR

Aliyeva Odinaxon Alisherjon qizi

Qo‘qon universiteti, Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

+998 93 911 14 06

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20395261>

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda mayda motorika ko‘nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati, uning nutq va aqliy faoliyat bilan uzviy bog‘liqligi yoritilgan. Tadqiqotda mayda motorika rivoji bolaning keyingi o‘qish, yozish, chizish va mustaqil hayot faoliyatiga tayyorgarlik jarayonidagi muhim omil sifatida talqin etiladi. Shuningdek, maqolada grafomotor, manipulyativ, sensorli mashqlar hamda konstruktiv o‘yinlar orqali bolalarning barmoq harakatlarini rivojlantirish usullari tahlil qilingan. Amaliy misollar asosida ipga terish, plastilin bilan ishlash, barmoq bo‘yoqlari yordamida rasm chizish, qog‘ozni yirtish va yopishtirish kabi mashg‘ulotlarning samaradorligi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: mayda motorika, maktabgacha yosh, grafomotor mashqlar, manipulyativ mashqlar, sensorli mashqlar, konstruktiv o‘yinlar, nutq va motorika aloqasi.

Maktabgacha yosh bu bola jismoniy, ruhiy va aqliy jihatdan shakllanadigan eng asosiy bosqichlardan biridir. Bu davrda bolaning mayda motorikasini rivojlantirish kelajakdagi o‘qish, yozish, chizish, nutqiy faoliyat va mantiqiy kabi ko‘plab ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bola qo‘li bilan bajarayotgan har bir nozik harakat uning aqliy darajasini rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tarbiyachilar tomonidan maqsadli va metodik tarzda olib boriladigan mashqlar, o‘yinlar va amaliy topshiriqlar orqali mayda motorikani rivojlantirish eng muhim pedagogik vazifalardan biridi.

Bolalarning mayda motorikasini rivojlantirish uchun kundalik faoliyat jarayonida kichik, lekn maqsadli mashqlarni muntazam qo‘llash muhimdir. Mashg‘ulotlar bolalarda nafaqat barmoqlarning harakatini, diqqat, kuzatuvchanlik, muvofiqlashtirish va fikrlashni ham rivojlantiradi. Dars davomida bolalarga turli xil materiallar taklif etilishi mumkin. Masalan, tugmalarni ipga terish, bog‘ichlarni bog‘lash, tugmalarni yechish va qaday qilish bolalarda mustaqil harakatlarni rivojlantiradi. Shu bilan, plastilin va loy bilan ishlash orqali barmoqlar harakati kuchayadi va tasavvur kengayadi. Loydan hayvonlar, mevalar va oddiy shakllar yasash orqali bolalar nafaqat mayda motorikani, balki estetik did va fantaziyasini ham rivojlantiradi. Rangli qumda chizish yoki barmoq bo‘yoqlaridan foydalanib surat tizish jarayoni ham sezgi a‘zolarining faollashuviga xizmat qiladi. Bolalar o‘z tasavvuridagi rasmni chizgan paytda har bir barmog‘i faol ishlaydi, bu yozuvga tayyorgarlik uchun juda foydalidir. Bu o‘yinlar nafaqat barmoqlarni ishlatishga majbur qiladi, balki bolalarning tafakkurini, fazoviy tasavvurini va sabr-toqatini ham oshiradi. Bolalarda mayda motorikani rivojlantirishda sensor o‘yinlarning o‘rni katta. Sensor o‘yinlar bolaning ijodiy tasavvurini boyitadi tafakkurini jonlantiradi atrof muxitni angelayd Sensor o‘yinlar bolalarning atrofni sezgi organlari orqali idrok etish rang, shakil, xid, tushunchalarni farqlashi mumkin.

Kichik guruh uchun mayda motorikani rivojlantiruvchi amaliy mashqlar ro‘yxati

| | |
|-------------------------------|--|
| Faoliyat turi | Boyitilgan, amaliy mashg‘ulot g‘oyasi |
| Ipga terish – o‘yincha yasash | Ular ipga navbat bilan terib "iloncha" yoki "bilaguzuk" yasashadi. Terilgan buyumlarni uyiga olib ketishga ruxsat berish motivatsiyani |

| | oshiradi. |
|--------------------------------|--|
| Bo‘yoq bilan barmoq rasm | Barmoq uchlariga bo‘yoq surtilib, qog‘ozga nuqta, chiziq, gul shakllari bosiladi. “Menimcha bu nima?” deb o‘yin bilan uyg‘unlashtiriladi |
| Rangli qog‘ozni yirtish | Bolalar rangli qog‘ozni qo‘li bilan yirtib, barg, quyosh, yomg‘ir shaklida kollej yasashadi. Tarbiyachi “bulutni bezatamiz” deb ko‘rsatma beradi |
| Plastilinni ezish, aylantirish | Oddiy harakat: plastilinni barmoqlari bilan ezish, aylantirish, barmoq bilan bosish. Shirinlik yoki kichik to‘pchalar yasash topshirig‘i beriladi. |

Mayda motorika bu bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishida asosiy jihatlardan biridir. Xozirgi kunda, maktabgacha yosh davrida bu ko‘nikmalarni shakllantirish orqali bolani yozuv, chizuv, tutib turish, mustaqil ovqatlanish va kiyinish kabi kundalik hayot faoliyatiga tayyorlash mumkin. Barmoqlar harakatining faolligi bola miya faoliyatini, nutq rivojlanishini va diqqatini hamda ijodiy qobiliyatini ham qo‘llab-quvvatlaydi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda mayda motorikani rivojlantirish ularning nafaqat jismoniy, balki aqliy, nutqiy va ijodiy rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Barmoqlar va qo‘l harakatlari orqali bajariladigan turli o‘yinlar bolalarning diqqatini jamlash, tafakkurini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va nutq faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, mozaika terish, konstruktor o‘yinlari, plastilin bilan ishlash, tugma qadash, ip o‘tkazish kabi mashg‘ulotlar bolalarda qo‘l muskullarining chiniqishiga yordam beradi. Mayda motorikani rivojlantirishga qaratilgan o‘yinlar bolaning yozishga tayyorgarligini ham mustahkamlaydi. Chunki qo‘l va barmoq harakatlarining rivojlanganligi keyinchalik yozuv jarayonini osonlashtiradi. Shu bilan birga, o‘yinlar bolalarda qiziqish uyg‘otib, ularni faol ishtirok etishga undaydi. Tarbiyachilar va ota-onalar tomonidan muntazam ravishda tashkil etilgan motorik mashg‘ulotlar bolalarning har tomonlama barkamol bo‘lib ulg‘ayishiga xizmat qiladi.

Demak, maktabgacha ta‘lim tizimida mayda motorikani rivojlantiruvchi o‘yinlardan samarali foydalanish bolalarning intellektual, nutqiy va jismoniy rivojlanishini ta‘minlashning muhim omillaridan biridir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Jo‘rayev M., Qodirova M. — Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi, Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” nashriyoti, 2020
2. Xo‘jayev Sh., To‘laganova Z. — Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan mashg‘ulotlar olib borish metodikasi, Toshkent: “Ilm Ziyos” nashriyoti, 2021.
3. Azizxo‘jayeva N.N. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.* – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
4. Mavlonova R., Rahmonqulova N. *Maktabgacha pedagogika.* – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
5. Qodirova F.R. *Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi.* – Toshkent: Fan, 2017.